

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.R.To'xtasinov, M.P.Azimova Kartoshka ildizi va uning atrofi tuproqlarida uchraydigan fitonematodalar sistematik tahlili va turlar xilma-xilligi	103
I.I.Zokirov, A.A.Yoqubov Kuzgi tunlamning qishloq xo'jalik ekinlariga ta'siri va O'zbekistonda samarali kurash choralari	106
B.A.Abdvaluhiyev, I.I.Zokirov Gelminlarning uy parrandalari bilan biotsenotik aloqalari	109
T.K.Ortikov, U.B.Shodmonov Janubiy Farg'ona tuproqlarining mikrobiologik faolligi va unga turli omillarning ta'siri	115
A.A.Ma'rupov Farg'ona vodiysi Uzunmo'ylov qo'ng'izlarining taksonomik reviziyasi va zamonaviy tur tarkibi	118
S.Sh.Axmadjonova Kolorado qo'ng'izi (Coleoptera, Chrysomelidae)ning ayrim biologik xususiyatlari	122
V.Y.Isaqov, X.V.Qoraboyev Tuproq va Indigofera tinctoria L. organlarida og'ir metallarning tarqalish va to'planish xususiyatlari	125

GEOGRAFIYA

M.N.Dehqonboyeva, X.A.Abdvaluhiyev Yer sig'imi tushunchasidan aholi zichligida foydalanish	132
X.Sh.Djo'raboyeva Farg'ona vodiysida an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishiga ekologo-geografik omillarni ta'siri	137
N.O'.Komilova Xo'jalik yuritishdagi qadimgi tizimning etnoekologik mohiyati	141
A.A.Xamidov Farg'ona vodiysining landshaftlarini shakllanishiga litogen tuzilish va rel'efning ta'siri	148

QISHHLOQ XO'JALIGI

Q.A.Davronov, D.Q.Ibragimova, R.A.Iminchayev, Sh.A.Kuramatova "Avangard start", "Gulliver" "Antikolorad maks" preparatlarini g'o'za parvarishida qo'llash usullari va muddatlari	153
Sh.A.Kuramatova, D.Q.Ibragimova, R.A.Iminchayev Kungaboqar o'simligiga qo'llanilgan mineral va organik o'g'itlarni uning o'sishi, rivojlanishiga va hosildorligiga ta'siri (Farg'ona viloyati tuproq iqlim sharoitida)	158
Sh.I.Mamatojiyev, M.A.Gaziyev Sabzavot ekinlari nafaqat oziq – ovqat, balki manzara hamdir	164
M.I.Aktamov, M.T.Isag'aliyev, B.M.Qo'chqorov Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarda suvda oson eruvchi ionlar dinamikasi	168
R.Djurayev Urushdan keyingi yillarda chorva ozuqasi muammosi	172
R.Djurayev Chorvachilik va uning sovet davlati xalq xo'jaligida tutgan o'rni	177

ILMIY AXBOROT

D.O.Turdaliyev Maslenitsa bayrami Slavyan madaniyatida ma'jusiylilik va xristian an'analarning aksi sifatida	181
--	-----



UO'K 595.768.11(591.5)

**FARG'ONA VODIYSI UZUNMO'YLOV QO'NG'IZLARINING TAKSONOMIK REVIZIYASI
VA ZAMONAVIY TUR TARKIBI****ТАКСОНОМИЧЕСКИЙ ПЕРЕСМОТР И СОВРЕМЕННЫЙ ВИДОВОЙ СОСТАВ
ДОЛГОНОСИКОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ****TAXONOMIC REVISION AND CONTEMPORARY SPECIES COMPOSITION OF
WEEVILS IN THE FERGANA VALLEY****Ma'rupov Akmaljon Akbarovich** 
Farg'ona davlat universiteti, b.f.f.d (PhD)**Annotatsiya**

Farg'ona vodiysi hududida qayd etilgan tur va kenja turlar ro'yxati ularning yuqori taksonlari bilan birgalikda keltirilmoqda. Qo'ng'izlarni Farg'ona vodiysida 5 kenja oila, 15 triba, 20 urug' va 11 kenja urug'ga oid 20 tur va 7 kenja turi tarqalganligi aniqlandi.

Mazkur hududidagi uzunmo'ylov qo'ng'izlarning tur tarkibini aniqlashda xalqaro e'tirof etilgan "Titan database on Cerambycidae or Longhorn beetles" (<http://titan.gbif.fr/index.html>), "Lamiines of the World" (<https://lamiinae.org/about.html>), "Cerambycidae: Subfamily Prioninae of World" (<http://www.cerambycidae.cz/home-page.html>), "Catalogue of Palaearctic Chrysomeloidea (Vesperidae, Disteniidae, Cerambycidae)" (<http://www.cerambycidae.net/>) kabi kataloglardan hamda ular tarkibidagi yuzlab ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Bundan tashqari, 2012-2023-yillar davomida Farg'ona vodiysining 30 dan ortiq nuqtasidan yig'ilgan namunalari uzunmo'ylov qo'ng'izlar tur tarkibini aniqlash uchun asos bo'ldi.

Аннотация

На территории Ферганской долины приводится список видов и подвидов, зарегистрированных в данном регионе, вместе с их высшими таксонами. Установлено, что в Ферганской долине распространены 20 видов и 7 подвидов длинноусых жуков, относящихся к 5 подсемействам, 15 трибам, 20 родам и 11 под родам.

Для определения видового состава длинноусых жуков региона использованы международно признанные каталоги, такие как "Titan database on Cerambycidae or Longhorn beetles" (<http://titan.gbif.fr/index.html>), "Lamiines of the World" (<https://lamiinae.org/about.html>), "Cerambycidae: Subfamily Prioninae of World" (<http://www.cerambycidae.cz/home-page.html>), "Catalogue of Palaearctic Chrysomeloidea (Vesperidae, Disteniidae, Cerambycidae)" (<http://www.cerambycidae.net/>), а также содержащаяся в них обширная научная литература. Кроме того, в основе исследования лежат образцы, собранные в более чем 30 точках Ферганской долины в период с 2012 по 2023 годы.

Abstract

The list of species and subspecies registered in the Fergana Valley, along with their higher taxa, is presented. It has been established that 20 species and 7 subspecies of longhorn beetles are distributed in the Fergana Valley, belonging to 5 subfamilies, 15 tribes, 20 genera, and 11 subgenera.

To determine the species composition of longhorn beetles in the region, internationally recognized catalogs such as the "Titan database on Cerambycidae or Longhorn beetles" (<http://titan.gbif.fr/index.html>), "Lamiines of the World" (<https://lamiinae.org/about.html>), "Cerambycidae: Subfamily Prioninae of World" (<http://www.cerambycidae.cz/home-page.html>), "Catalogue of Palaearctic Chrysomeloidea (Vesperidae, Disteniidae, Cerambycidae)" (<http://www.cerambycidae.net/>), as well as the extensive scientific literature contained in these sources, were used. In addition, the study is based on samples collected from over 30 locations in the Fergana Valley from 2012 to 2023.

Kalit so'zlar: Koleopterofauna, Cerambycidae, filogenetik tahlil, Markaziy Osiyo, sistematika.**Ключевые слова:** Колеоптерофауна, Cerambycidae, филогенетический анализ, Центральная Азия, систематика.**Key words:** Coleopterofauna, Cerambycidae, phylogenetic analysis, Central Asia, systematics.

KIRISH

Uzunmo'ylov qo'ng'izlar (Cerambycidae) qattiqqanotlilarning eng yirik oilalaridan biri bo'lib, ularning bugungi kunda butun dunyoda 38000 dan ortiq turi mavjud. Osiyo qit'asi, jumladan MDH mamlakatlari hududida olib borilgan tadqiqotlar davomida oila vakillarining ko'plab turlari tavsiflangan, ularning xilma-xilligi, tur soni, tarkibi, ozuqa o'simligi, zarar keltirish xususiyatlari kabi jihatlari atroflicha o'rganilgan. Jumladan, mintaqadan Cerambycidae oilasi vakillarining yangi tur va kenja turlarining kashf etilishi oila taksonomiyasi hamda faunistik tahlili borasida qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'p ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oila vakillarining Markaziy Osiyo davlatlari bo'ylab uchrashi borasidagi tadqiqotlarga qaraladigan bo'lsa, Tojikistonda uzunmo'ylov qo'ng'izlarning 60 turi uchrashi ma'lum [1]. Qozog'istonning janubiy va sharqiy qismida ularning 78 turi, butun respublika bo'ylab esa 272 turi, kenja turlar bilan hisobga olinganda esa 365 tur va kenja turi qayd etilgan [2]. O'zbekiston hasharotlariga bag'ishlangan bir qator ishlarda uzunmo'ylov qo'ng'izlar haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa-da, lekin ularning mamlakat hududidagi umumiy tur soni borasida aniq ma'lumotlar mavjud emas [3].

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekiston umumiy uzunmo'ylov qo'ng'izlari ro'yxati shakllantirilgach, ular ichidan Farg'ona vodiysida uchrovchi tur va kenja turlari ajratib chiqildi. Ro'yxat adabiyotlar, kataloglar, kolleksiyalardagi namunalar (O'zRes FA Zoologiya institutidagi uzunmo'ylov qo'ng'izlar kolleksiyasi ro'yxati asosida) va biz tomonimizdan kuzatuvlar davomida qayd etilgan namunalar asosida shakllantirildi.

Ma'lum bir hududdagi biologik turlarni muhofaza qilish maqsadida o'sha hududdagi turlardan flagman turlar (*flagship species*) sifatida foydalanish, shu bilan birga, mahalliy aholi turlarni tanishi uchun ularda mahalliy nomlarning bo'lishi muhim ahamiyatga egaligini bir qator zamonaviy tadqiqotlar asoslab bergan [4]. Ushbu maqsadda Farg'ona vodiysi uzunmo'ylov qo'ng'izlar ro'yxatini tuzish davomida ularning mahalliy nomlari ham shakllantirildi. Bunda ushbu turlarning avvalgi adabiyotlarda keltirilgan mahalliy nomlari, agar ular mavjud bo'lmagan taqdirda ularning kashf etilgan joyi, qo'ng'iz morfologiyasidagi o'ziga xoslik, ozuqasi hisoblangan asosiy o'simligi kabi jihatlar hisobga olindi.

Oila I. CERAMBYCIDAE Latreille, 1802**Kenja oila 1. APATOPHYSEINAE Lacordaire, 1869**Triba 1. *Apatophyseini* Lacordaire, 1869Urug' 1. *Apatophysis* Chevrolat, 1860Kenja urug' 1. *Apatophysis* Chevrolat, 1860

1. *Apatophysis* (*Apatophysis*) *baeckmanniana* Semenov, 1907 – Qizil-O'rda qorako'z mo'ylovkori* ▲

Kenja oila 2. CERAMBYCINAE Latreille, 1802Triba 2. *Callidiini* Mulsant, 1839Urug' 2. *Ropalopus* Mulsant, 18392. *Ropalopus mali* Holzschuh, 1993 – Zarang uzunmo'ylov qo'ng'izi* ▲Urug' 3. *Semanotus* Mulsant, 18393. *Semanotus bifasciatus* (Motschulsky, 1875) – ikki hoshiyali archa mo'ylovkori* ☼Urug' 4. *Turanium* Baeckmann, 1923Kenja urug' 2. *Chalcoturanium* Jankowski, 19344. *Turanium* (*Chalcoturanium*) *johannis* Baeckmann, 1922 – Talas uzunmo'ylov qo'ng'izi* ▲Kenja urug' 3. *Turanium* Baeckmann, 1923

5. *Turanium* (*Turanium*) *losi* Karpiński, Plewa & Hilszczański, 2021 – Arkit uzunmo'ylov qo'ng'izi* ▲

6. *Turanium* (*Turanium*) *pilosum* (Reitter, 1891) – Turon uzunmo'ylov qo'ng'izi ☼ ◇7. *Turanium* (*Turanium*) *scabrum* (Kraatz, 1882) – g'adur-budur qanotli mo'ylovkori* ◇Triba 3. *Cerambycini* Latreille, 1802Urug' 5. *Trirachys* Hope, 18428. *Trirachys sartus* (Solsky, 1871) – shahar mo'ylovkori ☼◇

Triba 4. Clytini Mulsant, 1839

Urug' 6. *Chlorophorus* Chevrolat, 1863

9. *Chlorophorus elaeagni* Plavilstshikov, 1956 – yumaloq bo'yin mo'ylovdor* ▲

10. *Chlorophorus faldermanni* Faldermann, 1837 – sakkiz nuqtali uzunmo'ylov qo'ng'izi* ☞

◇

Urug' 7. *Xylotrechus* Chevrolat, 1860

Kenja urug' 4. *Turanoclytus* Sama, 1994

11. *Xylotrechus* (*Turanoclytus*) *asellus* (Thieme, 1881) – jiyda uzunmo'ylov qo'ng'izi ☞ ◇

12. *Xylotrechus* (*Turanoclytus*) *namanganensis* (Heyden, 1885) – Namangan uzunmo'ylov

qo'ng'izi ☞ ◇

Triba 5. *Hesperophanini* Mulsant, 1839

Urug' 8. *Trichoferus* Wollaston, 1854

13. *Trichoferus campestris* (Faldermann, 1835) – tut uzunmo'ylov qo'ng'izi ☞ ◇

Triba 6. *Molorchini* Mulsant, 1863

Urug' 9. *Molorchus* Fabricius, 1793

Kenja urug' 5. *Molorchus* Fabricius, 1793

14. *Molorchus* (*Molorchus*) *schmidtii* Ganglbauer, 1883 – chalaqanot vodiy mo'ylovkori* ▲

Triba 7. *Tillomorphini* Lacordaire, 1869

Urug' 10. *Cleroclytus* Kraatz, 1884

15. *Cleroclytus semirufus* Kraatz, 1884 – Turkiston uzunmo'ylov qo'ng'izi* ▲

Kenja oila 3. LAMIINAE Latreille, 1825

Triba 8. *Agapanthiini* Mulsant, 1839

Urug' 11. *Agapanthia* Audinet-Serville, 1835

Kenja urug' 6. *Epopetes* Gistel, 1857

16.1. *Agapanthia* (*Epopetes*) *dahlia alaiensis* Kratochvil, 1985 – qushqo'nmaso't uzunmo'ylov

qo'ng'izi* ▲

Triba 9. *Dorcadionini* Swainson & Shuckard, 1840

Urug' 12. *Dorcadion* Dalman, 1817

Kenja urug' 7. *Cribridorcadion* Pic, 1901

17. *Dorcadion* (*Cribridorcadion*) *dokhtouroffi* Ganglbauer, 1886 – bir hoshiyali mo'ylovkor*

▲

Triba 10. *Obereini* Thomson, 1864

Urug' 13. *Oberea* Dejean, 1835

Kenja urug' 8. *Amaurostoma* Müller, 1906

18.1. *Oberea* (*Amaurostoma*) *ruficeps ruficeps* Fischer, 1842 – qizil boshli mo'ylovkor* ☞ ◇

Triba 11. *Phytoeciini* Mulsant, 1839

Urug' 14. *Phytoecia* Dejean, 1835

Kenja urug' 9. *Parobereina* Danilevsky, 2018

19. *Phytoecia* (*Parobereina*) *nivea* Kraatz, 1882 – qoqio't uzunmo'ylov qo'ng'izi* ◇

Triba 12. *Tetropini* Thomson, 1860

Urug' 15. *Tetrops* Kirby, 1826

Kenja urug' 10. *Mimosophronica* Breuning, 1943

20.1. *Tetrops* (*Mimosophronica*) *bicoloricornis ferganensis* Danilevsky, 2018 – Arslanbob

uzunmo'ylov qo'ng'izi* ▲

Kenja oila 4. LEPTURINAE Latreille, 1802

Triba 13. *Lepturini* Latreille, 1802

Urug' 16. *Xenoleptura* Danilevsky, Lobanov & Murzin, 1981

21. *Xenoleptura hecate* (Reitter, 1896) – sarv uzunmo'ylov qo'ng'izi* ☞ ◇

Triba 14. *Rhagiini* Kirby, 1837

Urug' 17. *Gnathacmaeops* Linsley & Chemsak, 1972

22. *Gnathacmaeops pratensis* (Laicharting, 1784) – o'tloq uzunmo'ylov qo'ng'izi* ◇

Kenja urug' 11. *Toxotochorus* Reitter, 1907

23.1. *Stenocorus* (*Toxotochorus*) *validicornis validicornis* Pic, 1900 – Sari-Chelak

uzunmo'ylov qo'ng'izi* ◇

Kenja oila 5. PRIONINAE Latreille, 1802

BIOLOGIYA

Triba 15. *Prionini* Latreille, 1802

Urug' 18. *Mesoprionus* Jakovlev, 1887

24. *Mesoprionus angustatus* (Jakovlev, 1887) – qora uzunmo'ylov qo'ng'iz* ◇

Urug' 19. *Pogonarthron* Semenov, 1900

25.1. *Pogonarthron tschitscherini brunnescens* Danilevsky & Shapovalov, 2017 – dasht uzunmo'ylov qo'ng'izi* ▲

25.2. *Pogonarthron tschitscherini pallidus* Danilevsky & Shapovalov, 2017 – Nayman uzunmo'ylov qo'ng'izi* ▲

Urug' 20. *Psilotarsus* Motschulsky, 1860

26.1. *Psilotarsus heydeni heydeni* (Ganglbauer, 1888) – Oloy uzunmo'ylov qo'ng'izi* ☼ ◇

Izoh: * turning mahalliy nomi ilk marotaba biz tomonimizdan taqdim etilmoqda; ☼ Farg'ona vodiysida uchrashi biz tomonimizdan qayd etilgan turlar; ◇ Farg'ona vodiysida uchrashi aniq ma'lumotlar asosida adabiyotlarda ko'rsatilgan turlar; ▲ Farg'ona vodiysida uchrashi turli tadqiqotchilar tomonidan spekulyatsiya qilingan turlar.

XULOSA

Farg'ona vodiysida uzunmo'ylov qo'ng'izlar oilasining 5 kenja oila, 15 triba, 20 urug' va 11 kenja urug'ga oid 20 tur va 7 kenja turi qayd etildi. Mazkur tur va kenja turlarning 10 tasi aynan bizning tadqiqotlarimiz davomida qayd etildi (☼), bundan tashqari Farg'ona vodiysining O'zbekiston qismidagi chegara hududida qayd etilgan (asosan Qirg'iziston tomonidan) va O'zbekistonda uchrashi spekulyatsiya qilingan tur va kenja turlar 12 tani tashkil qildi (▲).

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra qo'ng'izlarni 5 kenja oila, 15 triba, 20 urug' va 11 kenja urug'ga oid 20 tur va 7 kenja turi Farg'ona vodiysida tarqalganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kadyrov A.Kh., Karpiński L., Szczepański W.T., Taszakowski A., Walczak M. New data on distribution, biology, and ecology of longhorn beetles from the area of west Tajikistan (Coleoptera, Cerambycidae). *ZooKeys*, 2016. Vol. 606, – P. 41-64.
2. Karpiński L., Szczepański W.T. *Xylotrechus* (*Kostinicytus*) *alakolensis* sp. nov. (Coleoptera, Cerambycidae) from East Kazakhstan. *Zootaxa*, 2018a. Vol. 4370(3). – P. 255-261.
3. Yaxontov V.V. O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi o'simliklari hamda mahsulotlarining zararkunandalari va ularga qarshi kurash. – Toshkent: O'rta va oliy maktab, 1962. – 696 b.
4. Evan B.J., Abigail E. Identifying appropriate flagship species: the importance of culture and local contexts. *Oryx*, 2002. Vol. 36 (2), – P. 189-195.